

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyiga sayohat

Tarix so'zlaganda moziy muhri muzeyga ko'chishini his etish mumkin xolos. Ko'z bilan ko'rishning quloq bilan eshitishdan ko'ra ta'sir kuchi katta. "Gidromelioratsiya" fakulteti "Suv xo'jaligi va melioratsiya" yo'nalishi 2-bosqich 204 - guruh talabalari 23 noyabr kuni guruh murabbiysi "Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida staj.o'qt. Mahbuba Hayitova rahbarligida O'zbekiston tarixi Davlat muzeyiga tashrif buyurishdi.

Hayotimizning barcha sohalari kabi Respublikamizda muzeylar faoliyatida ham katta tarixiy o'zgarishlar sodir bo'ldi. VazirlarMaxkamasining 1992 yil 21 aprel qaroriga muvofiq O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi qayta tashkil etildi.

Hozirgi kunda ushbu muzey eng yirik ilmiy -ma'rifiy markazlardan hisoblanib, uning jamg'armasida 250 mingga yaqin eksponatlar mavjud. Muzey shuningdek, o'zbek xalqi tarixining muhim bosqichlarini aks ettirgan noyob arxiv materiallari, qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, fotomateriallar va h.k. ga ega.

Haykaltaroshlik, rassomchilik, kulolchilik, shisha san'atining betakror namunalari turli davrdagi estetik tasavvur tarixiga baho berish imkoniyatini yaratadi. Tashrif davomida talabalar o'zlarini qiziqtirgan barcha savollargato'la va aniq javoblar olishdi.



"Irrigatsiya va melioratsiya" kafedrasida ass. M. Xayitova axboroti

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov